

ISSN 2181-922X

O‘ZBEKISTON

TIL VA MADANIYAT

METODIKA

2023 Vol. 1 (4)

**www.tsuull.uz
www.metodika.tsuull.uz**

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Bosh muharrir:

Marg'uba Abdullayeva

Bosh muharrir o'rinbosari:

Gulnoza Jo'rayeva,

Shohruh Abduraimov

Mas'ul kotib:

Klaraxon Mavlonova

Tahrir hay'ati

Saidbek Boltaboyev (Turkiya), Ayshi Chetin (Turkiya), Muratbek Bagila Kurmanbekkizi (Qozog'iston), Qozoqboy Yo'ldoshev, Homidjon Homidiy, Roza Niyozmetova, Laylo Raupova, Shohida Yusupova, Valijon Qodirov, Tursunoy Yusupova, Shahlo Yo'ldosheva, Hoshimjon Ahmedov, Saodat Qambarova, Husnigul Jurayeva, Shaxnoza Rahmonova, Farida Umarova, Ra'no Umurzaqova, Matluba Jabborova, Odina Saidahmedova, Dilfuza To'xliyeva, Mahfuza To'ychiyeva, E'zoza Sobirova.

Jurnal haqida ma'lumot

"Metodika" seriyasi – Oliy attestatsiya komissiyasi ilmiy nashrlar ro'yxatidagi "O'zbekiston: til va madaniyat" akademik jurnalining ilovasi hisoblanib, ta'lim va tarbiya nazariyasi, til va adabiyot o'qitish metodikasi, gumanitar fanlarni o'qitish sohalarini qamrab olgan. "Metodika" seriyasida professor-o'qituvchilar, doktorantlar, stajor-tadqiqotchilar, mustaqil izlanuvchilar, magistrantlarning global ta'limdagi muammolar, til va adabiyot o'qitishdagi innovatsion yondashuvlar, ta'lim va tarbiya nazariyasi yo'nalishidagi ilmiy maqolalari nashr etiladi.

Jurnal bir yilda ikki marta chop etiladi.

O'zbek, ingliz va rus tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi.

Jurnalda kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiyalar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e'lon qilinadi.

Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

O'zbekiston: til va madaniyat. "Metodika" seriyasi 2022-yildan nashr etila boshlangan.

Manzil: Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti. O'zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103.

Email: metodika@tsuull.uz

Vebsayt: www.metodika.tsuull.uz

MUNDARIJA

GLOBAL TA'LIM MUAMMOLARI: YECHIMLAR VA TAKLIFLAR

Akmal Abdiyev

Pedagog kadrlar malakasini oshirish tizimida andragogik yondashuvni joriy etish.....4

Gulrux Abdiraimova

Boshlang'ich ta'limda didaktik o'yinlar orqali o'quvchilarning o'quv-biluv faoliyatini rivojlantirish metodikasi.....13

Nilufar Berdiyeva

Ona tili va adabiyot darslarini zamonaviy metodlar asosida tashkillash yuzasidan uslubiy tavsiyalar.....22

Maftuna Zaripova

Boshlang'ich sinflarda jahon adabiyoti namunalarini o'rganishning metodik tamoyillari.....32

TIL TA'LIMI NAZARIYASI VA AMALIYOTI

Shaxlo Yuldasheva

Liveworksheets onlayn servisida interfaol mashqlarni yaratish imkoniyatlari.....39

G'iyos Do'stmurodov

Oliy ta'limda orfoepiya o'qitishni takomillashtirishning ilmiy-metodik masalalari.....60

Qahramon Eshboyev

O'zbek tilining izohli lug'atida darajalanish tamoyili.....70

ADABIYOT O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUV

Safo Matchonov

Sinfdan tashqari o'qish mashg'ulotlarida badiiy idrok tarbiyasi.....81

Xusnigul Jo'rayeva

Husayniy she'riyatining o'ziga xos jihatlari xususida.....96

Jamoliddin Nurmuhammadov

O'quvchilarni adabiy laboratoriyalarda audiokitob tayyorlashga o'rgatishning muammolari.....102

Maxmuda Yuldasheva

Badiiy asarni evristik tahlil etish yo'llari.....113

Badiiy asarni evristik tahlil etish yo'llari

Maxmuda Yuldasheva¹

Abstrakt

Umumiy o'rta ta'lim maktablarining yuqori sinflarida adabiyot darsligida berilgan badiiy asarlarni o'rgatishda ta'lim oluvchilarning yoshi, hayotiy tajribasi, saviyasi, tasavvur qila olish ko'nikmasi va asar bilan tanishish jarayonida paydo bo'lgan ruhiyati hisobga olinadi. O'quvchi badiiy asarni o'rganish jarayonida asar qahramonlari holatlarini ich-ichidan his qila olmasa, ularda adabiyotga, badiiy asar mutolaasiga bo'lgan qiziqish susayadi.

Bu mulohazalardan kelib chiqib aytish mumkinki, umumiy o'rta ta'lim maktablarida adabiy asarlarni o'qitishda o'quvchilarni ijodiy faoliyatlarini rivojlantirishga, ularda ijodiy faollikni shakllantirishga alohida e'tibor qaratishimiz kerak.

Ushbu maqolada o'qitishning evristik usullari, badiiy asarni evristik tahlil etish yo'llari hamda adabiyot darslarida o'quvchilarni ijodkorlikka, tafakkur qilishga va mustaqil fikrlashga o'rgatish jarayonlari tahlil etiladi va metodik tavsiyalar beriladi.

Kalit so'zlar: *ijodkorlik, ijodiy faoliyat, evristik usul, interfaol metod, zamonaviy pedagogika, innovatsion usullar, ijodiy faollik, evristik ta'lim, ijodiy topshiriq.*

Kirish

Biz ta'lim jarayonida tashkil etayotgan adabiyot darslarining ilk vazifasi eng zaruriy va xolis fikrlarni bayon etish, o'quvchilarni zulmatdan yorug'likka olib chiqish hamda ular qalbida ezgulik tuyg'ularini shakllantirish, rivojlantirishdan iborat.

Hozirgi jadal rivojlanish ketayotgan bir davrda ta'lim sifati va samaradorligini oshirishning eng ma'qul va maqsadli yo'li bu – dars jarayonini tashkil etishda interfaol metod va usullarni to'g'ri tanlashga e'tibor qaratish. Barchamizga ma'lumki, interfaol ta'lim – o'quv jarayonida ishtirokchilarning bilim, ko'nikma va malakalarni

¹ Yuldasheva Maxmuda Alikulovna – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti

E-pochta: mahmudauldaseva@gmail.com

ORCID ID: 0009-0002-1465-1819

Iqtibos uchun: Yuldasheva M. 2023. "Badiiy asarni evristik tahlil etish yo'llari". *O'zbekiston: til va madaniyat*. 1(4): 113 – 120.

o'zlashtirishda o'zaro hamkorlikka asoslangan ta'lim, shu bilan birga bunday mashg'ulotlar natijasida ta'lim oluvchilarning ijodiy qobiliyatini shakllantirish va rivojlantirish jarayoni yangi pog'onaga ko'tariladi.

Inson tafakkurini rivojlantirishning eng yuqori darajasi yaratuvchanlikda, ijodkorlikda yaqqol namoyon bo'ladi va, aynan, mana shu ijodiy faoliyat orqali o'quvchi o'z imkoniyatini mustaqil namoyon qila oladi.

Psixolog va pedagog, bolalar va ta'lim psixologiyasining o'ziga xos yo'nalishiga oid qator adabiyotlar muallifi D.B.Elkonin har bir bolani insoniyat madaniyati yutuqlarini o'zgartirish va o'zlashtirishda doimo faol bo'lgan subyekt deb hisoblaydi. Ta'lim olish va bilimlarini muntazam oshirib borish jarayonlari orqali bola o'zida insoniy qobiliyatlarni ko'paytiradi [Эльконин, 1978, 112].

Evristik usullar inson psixikasining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga oladi. Bu usulda asosan o'quvchining badiiy asardan estetik zavq va taassurot olishi, natijada asar matni va g'oyasi asosida ijodiy tafakkurini shakllantirish vazifasi yetakchilik qiladi.

Zamonaviy pedagogika ta'lim jarayonida turli xil o'qitish usullaridan foydalanishga imkon berishi bilan birga har bir bola xarakteri va fikrlashiga moslashuvchan bo'ladi. O'qituvchilar tomonidan tayyorlangan usullar samarali bo'lishi va, asosiysi, o'quvchi dunyoqarashini kengaytirib, ijodiy faolligini oshirishi kerak. Hozirgi vaqtda eng mashhur innovatsion usullardan biri o'rganishning evristik usuli hisoblanadi.

Evristik usul birinchi marta qadimgi Yunonistonda Sokrat tomonidan taklif qilingan. Sokrat o'z shogirdlariga savollar berib, ularni fikrlashga, mulohaza yuritishga va gapirishga undagan.

O'qitishning evristik usuli ancha oldin paydo bo'lganiga qaramay, u zamonaviy pedagogikada nisbatan yaqin yillardan boshlab qo'llanilmoqda. Shuning uchun uning konsepsiyasining tasdiqlangan talqini yo'q. Evristik o'qitish usuli deganda o'rganish shakli (masalan, evristik suhbat), o'qitish usuli (aqliy hujum) va ijodiy rivojlanish texnologiyasi tushuniladi [Михайлова, 2018, 126].

O'qitishning evristik usuli – o'qituvchi tomonidan qo'yilgan savollarga mustaqil ravishda, ijodiy yondashuv asosida javob topishga qaratilgan usul.

Evristik ta'lim – o'rganish bo'lib, uning asosiy maqsadi o'quvchilarning intellektual fikri va maqsadini aniqlashga yordam berish, ta'lim olish jarayonida zaruriy kompetensiyalarni shakllantirishdan iborat. Qisqa qilib aytganda, evristik usulga

asoslangan ta'lim o'quvchilar tomonidan yangilikni doimiy ravishda kashf qilib borishdir.

O'qitishning evristik usuli o'zida ijodkorlikni mujassamlashtiradi va birlashtiradi. Buning sababi shundaki, o'qituvchi o'quvchilarga tayyor bilim yoki ma'lumotni bermaydi, balki ularni mustaqil izlanishlari, ijod qilishlari uchun yo'naltiradi. Obyekt sifatida asarlar, shoirlar nomi, tabiat hodisalari, tarixiy voqealar yoki tarixiy shaxslar, san'at asarlari olinishi mumkin. O'quvchilar obyektga asoslanib, o'z mulohazalarini gipoteza, matn, mahsulot, diagramma va boshqa shakllarda taqdimot etishlari mumkin. Evristik usul doirasida o'quvchi ijodiy faoliyatini o'z shaxsiy dunyoqarashi va nazariy bilimlaridan kelib chiqib olib boradi. O'quvchilar natijani o'qituvchiga taqdim etgandan so'ng barcha ma'lumotlar va tadqiq etilgan yangiliklar solishtiriladi va umumlashtiriladi. O'qitishning evristik usuli orqali aniq bilim va ko'nikmalar egallanishi emas, balki bolaning ijodkorligini shakllantirish va rivojlantirish amalga oshiriladi.

Asosiy qism

Badiiy adabiyot, so'z san'ati san'atning boshqa turlari orasida alohida o'ringa, mavqega ega bo'lib, u o'quvchini so'z sehri bilan o'ziga maftun etadi. Shunday ekan, adabiyotni o'qish, uning eng nozik qirralarini anglash inson evristik faoliyatining oliy ko'rinishidir. Masalan, adabiyotshunos olim Qozoqboy Yo'ldoshev: "His etilmagan, anglanmagan go'zallik ma'naviyat shakllanishiga xizmat qila olmaydi. Shuning uchun ham adabiyot o'qitishda badiiy asar tahlili alohida mavqega egadir, – deb ta'kidlaydi [Yo'ldoshev, Yo'ldosheva 2016: 12].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi 4947-son Farmoni hamda 2019-yil 20-fevraldagi "Prezident maktablarini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4199-son qarori, shuningdek, Prezident maktablari faoliyatini samarali tashkil etish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 25-iyundagi 526-son qarori ijorisini ta'minlash va Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 1-martdagi 141-sonli "Ijod maktablari va ixtisoslashtirilgan maktablar faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori ijrosini ta'minlash maqsadida Respublikamiz hududida, qator viloyatlarimizda zamonaviy shart-sharoitlarga hamda o'zgacha o'qitish uslubiga ega Prezident maktablari hamda Prezident ijod

maktablari tashkil etildi. Kelajagimizning “oltin fondi” bo‘lmish yosh avlodni tarbiyalash, mas’uliyati, bilimli, lider yoshlardan mustahkam bilim, yuksak salohiyatli kadr qilib shakllantirishga alohida e’tibor bilan yondashish bugungi kunning dolzarb masalalaridandir.

Tashkil etilgan ijod maktablarining vazifasi ta’lim jarayonida o’quvchi shaxsini rivojlantirishga yo’naltirilgan aqliy-intellektual, ijodiy xususiyatlarni namoyon qilishdan iborat.

Ma’lumki, o’quvchilarning ijodiy faoliyatini tashkil etishda o’quvchi shaxsiga yo’naltirilgan ta’lim tamoyiliga tayanish zamonaviy ta’lim tizimida eng maqbul yo’l hisoblanadi. Prezident maktablari o’quv jarayoni ana shunday tarzda tashkil etiladi, o’quvchining ijodiy faoliyatini samarali amalga oshirish uchun shart-sharoit yaratiladi va bu jarayonda o’qituvchi ham bevosita ishtirok etadi [Matkarimova, 2022, 926].

Dars berish jarayonida o’quvchi-yoshlarning faolligini oshirishga xizmat qiladigan va o’z pedagogik tajribam orqali amaliyotda sinalgan samarali usullarni namuna sifatida keltirib o’tmoqchiman.

Masalan, ijod maktablari uchun yozilgan 8-sinf “Adabiyot” darsligining I qismida “Ravshan” dostoni, “Kichkina shahzoda” qis-sasi, xuddi shu sinf darsligining II qismida Thokurning “Shubxa”, Usmon Nosir she’rlari o’rganish uchun taqdim qilingan. Mana shu mavzular bo’yicha mustahkamlash darslarida evristik usullardan foydalangan holda quyidagi topshiriqlarni berish mumkin:

“Ravshan” dostoni matniga tayanib Go’ro’g’li, Hasanxon va Ravshanning badiiy portretini o’z so’zlaringiz bilan matn ko’rinishida tasvirlashga harakat qiling.

Go’ro’g’li	Hasanxon	Ravshan

Bu topshiriqni bajarishda o’quvchilar berilgan jadvalni ijodiy yondashgan holda mustaqil fikrlarini yozib to’ldirishadi. Keyingi topshiriq orqali esa o’quvchilarning tafakkuri, mustaqil mulohaza yuritishlari hamda badiiy san’atning nozik qirralarini uqish ko’nikmalari shakllantiriladi.

Ravshan obrazi uchun maxsus chizilgan illyustratsiyani o’rga-ning va quyidagi topshiriqlarni bajaring:

1. Suratni sharhlashga harakat qiling.
2. Doston matnidagi Ravshan obrazi bilan suratni qiyosiy o’rganing.
3. Siz Ravshanni qanday tasavvur qilgan edingiz? Illyustrat-siya bu tasavvurlaringizga qanchalik ta’sir o’tkazganini ayting.

4. Suratdagi obrazlilik va ifodaviylikni tadqiq qiling.

Tasavvur har bir ijodiy jarayonda muhim rol o'ynaydi. Ayniqsa, badiiy ijodda uning ahamiyati katta. Yuqoridagi topshiriqlarni bajarish asnosida o'quvchilarning tasavvuri yanada boyiydi.

Darslikdan joy olgan keyingi asar Ekzyuperining "Kichkina shahzoda" qissasi. Bu asar bilan tanishishda qissaning darslikda berilgan parchalaridan tashqari radiopostanovka va multfilm talqinlaridan ham foydalanish mumkin. Bu orqali o'quvchilar bir asarni turfa xil yondashuvlar bilan o'rganadi.

1-topshiriq:

"Kichkina shahzoda" qissasining radiopostanovka talqinini tinglang va quyidagi jadvalni to'ldiring:

Savollar	Fikrlaringizni asoslab yozing
Obrazlar uchun berilgan ovozlar to'g'ri tanlanganmi?	
Bezak uchun berilgan musiqa va shovqin tinglashga xalaqit qilmaydimi?	
Nima deb o'ylaysiz: Siz uchun asarni o'qigan yaxshimi, eshitganmi? Nima uchun?	
Siz radiospektaklni nimalar bilan to'ldirgan bo'lar edingiz?	

2-topshiriq:

"Kichkina shahzoda" asarining multfilm talqinini asarning asl matni varianti bilan qiyoslang:

Obraz va syujetdagi o'zgarishlar	Kiritilgan yangiliklarning ahamiyati

Ijod maktablari o'quvchilari uchun tayyorlangan 8-sinf darsligining II qismida berilgan Thokurning "Shubxa" asarini o'rganishda o'quvchini fikrlashga, asar g'oyalaridagi, tasvirlaridagi mushtaraklikni topishga qaratilgan topshiriq:

Topshiriq:

"Qani endi Shubxa suv parisi bo'lsa?!"

Ushbu holatni Chingiz Aytmatovning "Oq kema" qissasidagi

bolaning ulkan orzulari bilan qiyoslang. Ularning tabiat bilan munosabatlari va kechinmalaridagi umumiylikka to'xtaling.

Darslikning II qismidagi Usmon Nosirning "Nil va Rim" she'ri matnini tahlil qilish jarayonida quyidagi topshiriqni bajarish mumkin.

Topshiriq:

She'rdagi lirik qahramonning Rimga bergan quyidagi sifatlashlari ildizini she'r matni va tarix fanidan olgan bilimlaringizga tayangan holda asoslangva quyidagi jadvalni to'ldiring.

Sifatlashlar	Izoh va sabablar
"gado Rim"	
"yalang'och Rim"	
"ahmoq Rim"	
"Rim – o'yindan o'lim kutgan jinni teatr"	

Bu topshiriq orqali darsda fanlararo integratsiya jarayoni olib boriladi.

Ijodiy topshiriq bilimlarni mustaqil egallash ehtiyojini yuzaga keltirishda muhim poydevordir. Topshiriq ijodiy xarakterda bo'lmasa, o'quvchi mustaqil bilim olishga ehtiyoj sezmaydi [Saidov, 2000, 43]

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, dars jarayonini noan'anaviy tarzda tashkil etishda yuqorida keltirilgan texnologiyalar va usullardan foydalanish mumkin. Ular bolalarni tez fikrlashga, topqirlikka va ijodkorlikka o'rgatadi.

Ta'lim maskanlarida adabiyot fanini o'qitishning bosh maqsadi o'quvchida ijodiylik, mustaqil fikrlash malakalarini rivojlantirib, ijodiy fikrlarini nutq vaziyatiga mos hollarda to'g'ri va aniq ifodalash ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat.

Ta'lim-tarbiya jarayonining muvaffaqiyatli kechishi uchun o'qituvchi qanchalik qiziqish va xohish bilan ta'lim berishga harakat qilsa, o'quvchi ham xuddi shunday ishtiyoq bilan bilim olishga kirishadi.

Adabiyotlar

Эльконин Д. Б., 1978. Психология игры. Москва: Педагогика.

Михайлова Е.В., 2018. Эвристический метод обучения. ([https://spravochnik.ru/pedagogika/teoriya_obucheniya/evristicheskiy_metod_obucheniya/\[2023.03.03\]](https://spravochnik.ru/pedagogika/teoriya_obucheniya/evristicheskiy_metod_obucheniya/[2023.03.03]))

- Qozoqboy Yo'ldoshev, Muhayyo Yo'ldosheva, 2016. Badiiy tahlil asoslari. Toshkent: Kamalak.
- Matkarimova N.B., 2022 May. Prezident maktablari o'quvchilarining ijodiy qobiliyatini shakllantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari. "Science and Education" Scientific Journal. Toshkent.
- Saidov M., 2000. O'zbek maktablarining 5-sinflarida ona tili ta'limi jarayonida tafakkurni rivojlantiruvchi o'quv topshiriqlari va ulardan foydalanish metodikasi: Ped.fan.nomz.diss.avtoreferati. Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU.
- Nurmuhammadov J. va boshqalar. 2022. 8-sinf adabiyot darsligi (Ijod maktablari uchun, I qism). Toshkent: Adast poligraf.

Ways of heuristic analysis of a work of art

Makhmuda Yuldasheva¹

Abstract

When teaching fiction given in a literature textbook in the upper classes of general secondary education schools, the age, life experience, level, ability to imagine and the psyche that arises in the process of acquaintance with the work are taken into account. When the reader is unable to internally feel the states of the heroes of the work in the process of studying a work of art, their interest in literature, in the reading of a work of art subsides.

It can be said from these considerations that when teaching literary works in general secondary schools, we should pay special attention to the development of students' creative activities, the formation of creative activity in them.

This article analyzes the heuristic methods of teaching, the ways of heuristic analysis of a work of art and the processes of teaching students to creativity, thinking and independent thinking in Literature lessons, and gives methodological recommendations.

Key words: *creativity, creative activity, heuristic method, interactive method, modern pedagogy, innovative methods, creative activity, heuristic education, creative assignment.*

¹ Yuldasheva Makhmuda Alikulovna – a doctoral student at Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi.

Email: mahmudauldasheva@gmail.com

ORCID ID: 0009-0002-1465-1819

For citation: Yuldasheva, M. 2023. "Ways of heuristic analysis of a work of art." *Uzbekistan: Language and Culture*. 1(4): 113 – 120.